

**PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASHDA KONTEKSTUAL YONDASHUV**

**G'ulomova Maftunaxon Ravshanbek qizi**  
*Qo'qon davlat universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kontekstual o'qitishning mazmuni, mohiyati, maqsadi va kontekstual o'qitishga asoslangan ta'limning asosiy tamoyillari, ya'ni amaliyotga yo'naltirilganlik, talabalarning faolligi, uzviylik, ko'p kontekstlilik kabi jihatlar yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston pedagogik ta'lim tizimida kontekstli yondashuvni samarali tatbiq etish bosqichlari, bu jarayonda yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish yo'llari ham ko'rib chiqilgan. Maqola natijalari kontekstual o'qitish modelini amaliyotga joriy etishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Kontekstual ta'lim, kontekstual o'qitish modeli, konstruktivizm, kognitiv kontekst, didaktik kontekst, ijtimoiy kontekst, amaliyotga yo'naltirilganlik, talabalarning faolligi, uzviylik, ko'p kontekstlilik.

**КОНТЕКСТНЫЙ ПОДХОД К ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются содержание, сущность, цель контекстного обучения и основные принципы образования, основанного на контекстном обучении, а именно: практикоориентированность, активность учащихся, когерентность, поликонтекстность. Также рассматриваются этапы эффективного внедрения контекстного подхода в систему педагогического образования Узбекистана, возникающие при этом проблемы и пути их решения. Результаты статьи служат важной методологической основой для внедрения модели контекстного обучения на практике.

**Ключевые слова:** Контекстное обучение, модель контекстного обучения, конструктивизм, когнитивный контекст, дидактический контекст, социальный контекст, практикоориентированность, активность учащихся, когерентность, поликонтекстность.

**CONTEXTUAL APPROACH TO TEACHER TRAINING**

**Abstract.** This article discusses the content, essence, purpose of contextual teaching and the main principles of education based on contextual teaching, namely, practice orientation, student activity, coherence, multi-contextuality. It also considers the stages of effective implementation of the contextual approach in the pedagogical education system of Uzbekistan, the problems that arise in this process and ways to solve them. The

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

*results of the article serve as an important methodological basis for implementing the contextual teaching model in practice.*

**Keywords:** *Contextual teaching, contextual teaching model, constructivism, cognitive context, didactic context, social context, practice orientation, student activity, coherence, multi-contextuality.*

Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish hamda ularning sifatli tayyorlanishini ta'minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qator hujjatlar bu boradagi islohotlarning huquqiy asosini yaratmoqda. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida oliy ta'limda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish va innovatsion infratuzilmani shakllantirish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash kabi strategik maqsad va ustuvor yo'nalishlar belgilangan [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy o'quv dasturlarini joriy qilish, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [2].

Dunyo ta'lim tizimida an'anaviy yondashuvlar o'rnini egallayotgan kontekstli yondashuv, zamonaviy pedagogik jarayonlarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash orqali o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda, bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kontekstli yondashuvning qo'llanilishi o'z dolzarbligini yanada oshirmoqda. Kontekstli yondashuv Kontekstual o'qitish modeli sifatida ham ta'lim tizimida keng qo'llaniladi. Pedagog olimlar R.G.Berns, P.M.Erickson kontekstual o'qitish borasida qator tadqiqotlar olib borgan. Olimlar kontekstual o'qitish pedagogik yondashuv ekanligini, o'quv jarayonini real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash orqali talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini yaratishini keltirib o'tadi. Bu yondashuv talabalarning bilimlarini mustahkamlash va ularni real muammolarni hal qilishga tayyorlashga yordam beradi. Kontekstual o'qitishning samaradorligi talabalarning o'rganish jarayonida faol ishtirok etishlari va o'z tajribalariga asoslangan holda yangi bilimlarni o'zlashtirishlari bilan bog'liq. Bu yondashuv talabalarning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. [3, 490].

Jahonda kontekstual o'qitish modellarining pedagogik amaliyotda qo'llanilishi va

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**21.10.2025**

uning ta'lim sifatini oshirishdagi roli ortib bormoqda. Kontekstual o'qitish modellari talabalarning bilimlarini real hayotdagi vaziyatlar bilan bog'lashga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. UNESCO, OECD va boshqa xalqaro ta'lim tashkilotlari kontekstual o'qitishni inklyuziv va kompetensiyaga asoslangan ta'lim strategiyalarining ajralmas qismi ekanligini tasdiqlamoqda. Xususan, UNESCO tashkiloti tomonidan nashr etilgan "Smart Education Strategies for Teaching and Learning: Critical Analytical Framework and Case Studies" [4] hisobotida kontekstual o'qitish modellarini o'quv jarayonida samarali qo'llanishi ta'kidlab o'tilib, model talabalarning kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda, shuningdek, raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashuvda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan.

Kontekstual o'qitishning asosiy nazariy poydevori konstruktivizm bo'lib, bu nazariyaga ko'ra, bilim inson tomonidan faol ravishda shakllantiriladi va o'zlashtiriladi. Konstruktiv yondashuvga muvofiq, talabalar yangi bilimlarni ilgari mavjud bilimlar bilan integratsiya qilish orqali o'ziga xos tushunchalar hosil qiladilar. Ushbu jarayonda talabalar faqat ma'lumotlarni yodlash yoki tinglash bilan cheklanib qolmay, balki muammolarni hal qilish, tahlil qilish va real sharoitlarda qo'llash orqali bilimlarni mustahkamlashadi.

Kontekstual yondashuvning asosi real hayotiy vaziyatlarga moslashtirilgan autentik topshiriqlar, talabaning ijtimoiy hamkorlikdagi faol ishtiroki va faoliyatga yo'naltirilgan bilim konstruksiyasidir. Modelning nazariy poydevori konstruktivizm, faoliyat nazariyasi, situativ bilish va transfer tamoyillariga tayanadi. Kontekstual o'qitish modellarining maqsadi bilimni amaliy muammolar bilan bog'lab, barqaror o'rganishga xizmat qiluvchi adaptiv, dalilga tayangan ta'limni ta'minlashdir.

Kontekst (lot. contextus – "bog'langan", "o'zaro munosabatli") deganda lingvistik, madaniy, ijtimoiy yoki didaktik jarayonlarda mazmunni belgilovchi, uni anglashda hal qiluvchi tashqi va ichki omillar majmui tushuniladi.

Ushbu atama dastlab tilshunoslikda, so'z yoki jumalarni anglash uchun zarur bo'lgan matn yoki nutqdagi boshqa birliklar sifatida qo'llangan. Keyinchalik psixologiya, madaniyatshunoslik, sotsiologiya va pedagogikaga kirib kelgan holda kontekst murakkab ijtimoiy-ma'naviy yoki didaktik holat sifatida talqin qilina boshlandi.

Pedagogika fanida "kontekst" odatda quyidagi nuqtai nazarlarda ishlatiladi: Kognitiv kontekst bilimni qanday qilib qabul qilish va uni ma'noga aylantirishga oid shart-sharoitlarni, didaktik kontekst ta'lim jarayonida dars yoki fan mazmunining real muhitga bog'liqligi hamda ijtimoiy-kasbiy kontekst talabalarning kelajak kasbiy faoliyati bilan bog'liqligini tavsif etadi.

Kontekstual ta'limga asoslangan o'qitishning yetakchi tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Amaliyotga yo'naltirilganlik. Bilimlar real muammolar, kasbiy holatlar va hayotiy vaziyatlar asosida beriladi.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

- Talabalarning faolligi. Talabalar bilimni mustaqil iz-lanish, muho-kama va muammolarni hal qilish orqali egallaydi.
- Uzviylik. Yangi bilim talabaning avvalgi bilim va tajribasi bilan bog'lanadi.
- Ko'p kontekstlilik. Talabalar bilimni turli kontekstlarda (kasbiy, shaxsiy, ijtimoiy) o'zlashtiradi.

O'zbekistonda pedagogik ta'limda kontekstli yondashuvni samarali tatbiq etish uchun quyidagi bosqichlar muhim hisoblanadi:

O'quv rejalari va dasturlarini qayta ko'rib chiqish – Oliy ta'lim muassasalarida fanlar mazmuni zamonaviy pedagogik texnologiyalar, zamon talablari, mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yangilanishi zarur;

Pedagogik amaliyotni kuchaytirish – Talabalarning maktablarda amaliyot o'tash muddatini uzaytirish, ularni real dars jarayonlariga faol jalb etish.

Interaktiv o'qitish metodlaridan foydalanish – Loyihaga va muommoga yo'naltirilgan, rol o'yinlari, simulyatsiyalar yordamida darslarni tashkil etish.

Raqamli texnologiyalarni qo'llash – Virtual laboratoriyalar, onlayn platformalar orqali kasbiy holatlarni modellashtirish imkoniyatlaridan foydalanish.

Hududiy kontekstni hisobga olish – Mahalliy sharoitlar, madaniy va ijtimoiy omillar asosida o'quv jarayonini moslashtirish.

Tadqiqot ishimizda pedagogik oliy ta'limda qo'llash mumkin bo'lgan "Oignon (piyoz)" [5], "Fleurs (Gul)" [6], "Nuages (bulut)" [7] kabi kontekstual o'qitish modellariga namunalar va ularning tatbiqi keltirilgan.

Pedagogik kadrlarni tayyorlashda kontekstli yondashuv – bu faqat zamonaviy talablarga moslashish vositasi emas, balki real ta'lim muammolariga yechim bo'la oladigan tizimli yondashuvdir. Ushbu yondashuvning mohiyatini chuqur anglagan holda, uni amaliyotga to'liq joriy etish pedagogik ta'lim sifatini oshirishga, yangi avlod o'qituvchilarini tayyorlashga xizmat qiladi. Kontekstual o'qitish modeli jamoaviy o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi, talabalarda ijtimoiy hamkorlik, o'zaro mas'uliyat, kommunikativ madaniyat va kasbiy o'zaro munosabatlarni shakllantiradi. Guruhli ishlash, jamoaviy qarorlar qabul qilish, fikr almashish va muammoli holatlarni muhokama qilish orqali o'quvchilar o'zlarining shaxsiy pozitsiyasini kasbiy muhitda mustahkamlab boradilar. Bunday tajriba real mehnat bozori sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun muhim kompetensiyalarni – ijtimoiy moslashuvchanlik, stressga chidamlilik, liderlik, ijtimoiy javobgarlik kabi muhim qobiliyatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**21.10.2025**

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni // Qonun hujjatlari,  
<https://lex.uz/ru/docs/-4545884>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

3. Berns R.G. Erickson P.M. Contextual Teaching and Learning: Preparing Students for the New Economy. The Highlight Zone: Research @ Work No. 5 // Office of Vocational and Adult Education (ED), Washington, DC. 2001. – P. 490.

4. UNESCO IITE, COL & BNU. 2022. Smart Education Strategies for Teaching and Learning: Critical Analytical Framework and Case Studies. Moscow: UNESCO IITE.

5. G'ulomova M.R. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi mahorati: Oignon (piyoz) modeli asosida nazariy va amaliy tahlili // Qo'qon universiteti xabarnomasi, Vol.:13, 2024. –B. 224-229.(13.00.00)

6. G'ulomova M.R. Fleurs (Gul) modeli: O'qituvchining kommunikativ qobiliyatlarini kontekstual tahlil qilish // Qo'qon DPI ilmiy xabarlar, 2025 -yil 1-son. – B. 498-506 (13.00.02)

7. G'ulomova M.R. "O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot" mavzusini o'rganish: Nuages (bulut) modeli yondashuvi // "Tarbiyaga oid xalqaro tajribalarni to'plash va transformatsiyalash strategiyalari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. Toshkent 2025. –B. 149-153.